

**Samarqand davlat universiteti Urgut filiali iqtidorli yoshlarining g'oya va loyihalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida talaba-yoshlar o'rtasida o'tkaziladigan "TOP 10 innovator" reytingi tanlovi**

**N I Z O M I**

**1. Umumiy qoidalar**

1. Samarqand davlat universiteti Urgut filialida ta'lim olib, ilmiy tadqiqotlar bilan shug'illanayotgan talaba-yoshlar o'rtasida o'tkaziladigan **"TOP 10 innovator"** reytingi tanlovi iqtidorli talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini muvofiqlashtirish sektori nizomida belgilangan maqsad va vazifalar doirasida iqtidorli, iste'dodli va tashabbuskor talabalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning intellektual salohiyatlarini ro'yobga chiqarish, shuningdek eng ilg'or va yuqori salohiyatga ega bo'lgan yoshlar orasidan kuchli 10 talikni aniqlab olish, ularning loyihalarini amaliyotga tadbiiq etishga ko'maklashish hamda moddiy va ma'naviy rag'batlantirish maqsadida tashkil etiladi.

2. **"TOP 10 innovator"** reytingi tanlovi (keyingi o'rinlarda-tanlov) filialda tahsil olayotgan talaba yoshlar o'rtasida tashkil etiladi va o'tkaziladi.

3. Tanlovni tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq barcha tashkiliy masalalar ilmiy va innovatsiyalar bo'yicha direktor o'rinbosari hamda iqtidorli talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi tomonidan hal etiladi.

**2. Maqsad va vazifalar**

4. Tanlov maqsadi Samarqand davlat universiteti Urgut filialida tahsil olayotgan talaba yoshlar orasidan innovatsion loyihalarga, yangilik yaratuvchi yoshlarning TOP 10 reytingni aniqlash.

5. Davlatimiz tomonidan ilmiy soha vakillariga, talaba-yoshlarga yaratib berilgan imkoniyatlar, shart-sharoitlardan unumli foydalanish va ularning saflarini yanada kengaytirish, innovatsion loyihalarni amalda targ'ib qilish;

6. Talaba-yoshlar o'rtasida o'zaro ilmiy-ijodiy hamkorlik muhiti, do'stlik aloqalarini shakllantirish, o'zaro tajriba almashish va ilmiy faoliyatni olib borishda bir-biriga ko'maklashishi, loyihalarini amaliyotga tadbiiq etishda hamda uztoz-shogird an'analari asosida ishlashlari uchun shart-sharoitlar yaratib berish, shuningdek, ularni g'oya, ilm, fan-texnika taraqqiyoti yo'lida birlashtirish.

**3. Tanlov shartlari**

7. Taqdim etilgan loyihalar tanlov talablariga qat'iy rioya qilinganligi, loyiha materiallarining ishonchliligi va haqqoniyligi, ko'chirmachilikka (plagiatga) yo'l qo'yilmaganligi, shuningdek, loyiha yakunida qo'lga kiritiladigan muhim ilmiy natijalarning tadqiqot dizayniga muvofiq to'liq asoslanganligi va so'ralgan mablag'larning tanlov shartlarida keltirilgan moliyalashtirish hajmiga muvofiq to'g'ri hisob-kitob qilinganligi bo'yicha dastlabki fakultet dekanati, kafedralarda fikr-mulohazalar o'tkaziladi.

8. Taqdim etilgan loyihalardagi ma'lumotlarning to'liqligi, haqqoniyligi va ishonchliligi hamda ilmiy loyihalarning natijadorligi, tijoratlashtirish salohiyati, loyihada rejalashtirilgan ilmiy-tadqiqotlarni to'la va o'z vaqtida sifatli bajarilishiga ilmiy loyiha rahbarlari mas'ul hisoblanadilar.

#### **4. Tanlovni tashkil etish muddati va tartibi**

9. Tanlovni o'tqazish muddati:

- Talaba hujjatlarini qabul qilish: 05.10.2023dan 30.10.2023gacha;
- Kelib tushgan loyihalarni ko'rib chiqish: 01.11.2023dan 30.11.2023gacha;
- Tanlov g'oliblarini e'lon qilish: 1.12.2023dan 10.12.2023gacha;

#### **5. Tanlovda ishtirok etish tartibi va baholash mezonlari**

10. Tanlovda universitetda ta'hsil olayotgan barcha bakalavrlar talabalari ishtirok etadi.

11. Tanlovda ishtirok etish uchun:

- Loyiha;
- Loyiha prototipi, maketi;
- Loyihaga oid maqola (agar bor bo'lsa);
- Loyiha taqdimoti;

12. Baholash mezonlari:

- Loyihaning innovatsion yangiligi;
- Loyihaning prototipi mavjudligi;
- Mavjud analoglaridan afzalligi;
- G'oyaning amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar;
- Loyiha amaliyotga joriy etish darajasi;

13. Tanlov ishtirokchilari komissiya a'zolariga loyihaning ilmiy va amaliy hamda ijtimoiy ahamiyatini tushuntirib bera olishini namoyish etishi lozim.

komissiya a'zolari guruhi xakamlar hayati a'zolarining bayonnoma qaroriga muvofiq universitet buyrug'iga muvofiq g'oliblar ro'yxati e'lon qilinadi.

#### **6. G'oliblarni taqdirlash**

14. Yuqorida keltirilgan mezonlarga to'laonli javob bergan TOP 10 ishtirokchi g'olib deb topiladi.

15. Tanlovning baholash mezonlari asosida saralab olingan g'olib ishtirokchilar universitet ma'muriyatining maxsus diplom hamda pul mukofati yoki esdalik sovg'alari bilan taqdirlanadilar.

16. Ushbu Nizom, tanlov to'g'risidagi ma'lumotlar va uning natijalari oliy ta'lim muassasasining rasmiy web-sayti va boshqa ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi.